TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Tashqi savdoni vujudga kelishi o'z tarixiga ega jarayon hisoblanadi, "nima sababdan davlatlar biri biri bilan savdo qiladi?" dayegan savol XII asrning boshlaridan iqtisodchilarni qiziqtirib kelgan mavzu hisoblanadi va bunday qiziqish turli davrlarda turlicha iqtisodiy maktablarni yaralishiga sabab bo'lgan. Yirik geografik kashfiyotlar va oltinning pul vazifasini bajarishi bilan milliy iqtisodiyotlar shakllandi, milliy iqtisodiyotlar davlatlar ko'rinishida o'z ta'sir doiralari kengaytirishni istadilar hamda bir birlari bilan urushlar orqali bosqinlarni amalga oshirib o'zlarining mustamlaka davlatlarini shakllantirdilar. Yirik shaharlar iqtisodiy markazlar sifatida yuzaga keldi, san'at, fan va ta'lim sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilib iqtisodiyot nazariyasi ham rivojlana bordi, yangi xo'jalik tizimlari vujudga keldi, tovarlarning bu tizimlardagi roli o'rganila boshlandi natijada savdoning ilk nazariyalaridan biri sifatida merkantilizm g'oyalari shakllandi.

Merkantilizm (italyancha so'zdan olingan bo'lib "mercantile" – savdogar degan ma'noni bildiradi) – iqtisodiy maktab sifatida tashqi savdoda faol yoki ijobiy savdo balansini qo'llab quvvatlash va oltin milliy boylik asosi degan g'oyalarni ilgari surishgan. Merkantilistlar tashqi savdo borasida uchta asosiy g'oyaga ega edilar: birinchisi oltin va kumush milliy iqtisodiyotda boylik asosi, ikkinchisi uning manbai eksport importdan ko'p bo'lishi kerak, uchinchisi davlat tashqi savdo balansining ijobiy qoldig'ini ta'minlashi kerak, ya'ni boylik manbai mana shu uch asosiy g'oya asosida shakllanadi deb hisoblashgan. Bu borada Britaniyalik olim Tomas Man "Tashqi savdo bo'yicha Angliya boyligi" degan asarini yozgan, bu asar tashqi savdoga oid birinchi ilk ilmiy asar sifatida qaraladi, shu orada oltin to'plash maqsadida Yevropa davlatlari mutassil urushlar olib borilgan, Tomas Man esa merkantilizm nazariyasini rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida tan olinadi.

Eksport va import orasidagi tafovut tashqi savdo balansini qoldig'i ekanligi, davlatning ikki tomonlama tashqi savdosini amalga oshirishda oltin hisobini yoki boylik hisobini yuritishda muhim ko'rsatkich ekanligi tan olingan, Tomas Manning asosiy xizmati savdo balansini tushunchasini davlat miqiyosida tashqi savdo balansini ko'rinishiga



keltirishi edi. Tovarlar importi Tomas Man fikriga ko'ra eksportni ham rag'batlantirishi, milliy iqtisodiyot uchun oltinni (qattiq valyuta) kamayishiga olib kelsada hamkor tomonni rag'batlantirishi va bu o'z navbatida davlatlar orasida xalqaro savdoning yanada rivojlanishiga olib keladi deb hisoblaydi. Undan tashqari bu olim pul savdoni rag'batlantirishi va xalqaro savdogarlarni tayyorlash g'oyalarini ham aytib o'tgan, bu fikrlar sharqiy Yevropa davlatlari orqali Rossiyaga ham kirib kelgan, nima sababdan Rossiya hakida aytib o'tishimiz sababi bu g'oyalar Markaziy Osiyo davlatlari tarixiga ham jiddiy ta'sir etganini keyinchalik izohlab ketamiz. Shu o'rinda ta'kidlash joizki Ibn Xaldunning halol tadbirkor g'oyasi bizning yurtlarda taniqli bo'lgan, ya'ni tadbirkor halol bo'lsa mam-lakat va podshohni boy qiladi, boy davlat qudratli armiyasiga ega bo'ladi degan fikrlar ham shakllangan edi. Islom dini nozil etilishi hamda tarqalishi bilan ko'pgina musulmon davlatlar orasida tashqi savdo munosabatlari amalga oshirilgani barchamizga ma'lum, lekin Yevropa olimlarining ustunligi aynan tashqi savdoga oid adabi-yotlar yozib qoldirganligida degan xulosaga kelish mumkin.


Britaniyaning dunyodagi ko'plab davlatlarni mustamlakaga aylashtirish, ulardan arzon xom ashyo olib qayta ishlab sotishi, o'zining mustamlakalariga tashqi savdoga ishtirok etishni ta'qiqlashi, sanoat mahsulotlari faqatgina Briyataniyadan sotib olishi zarurligi targ'ib etish hamda faqat eksportga yo'naltirilgan siyosati nati-jasida 1662-yil Angliyada Uilyam Petti "Soliqlar va yig'imlar to'g'risida" risola yozadi. Uilyam Pettining fikriga ko'ra import hajmi eksportdan oshmaslik sharti bilan amalga oshirilishi mumkin, davlatdan pulning chiqib ketishi ta'qiqlash yoki uni kamaytirish tashqi savdoda kutilgan natijani bermaydi, uning fikriga ko'ra ichki bozorni himoya qilish emas balki uni mantiqan, ilmiy asoslangan tarzda tartibga solish kerak deydi, bugungi kundagi dolzarb bo'lgan bojxona siyosati masalalarini ham o'z risolasida bayon etadi.

Shuningdek bojxona to'lovlarining stavkalar yuqori bo'lmasligi, tashqi savdodagi tadbirkorlar uni yengil to'lashlari, shu yo'l bilan bojxona to'lovlaridan bo'yin tovlash holatiga chek qo'yish mumkin deb hisoblaydi. Bojlarning to'g'ri undirilishi ikkita mezon asosida amalga oshirilishi ta'kidlaydi: birinchisi barcha narsalar, tayyor mahsulotlar yoki iste'molga yaroqli tovarlar ichki ishlab chiqarish yoki yetishtirilgan mahsulotlarga nisbatan qimmatroq bo'lishi (ya'ni chetdan import qilingan tovarlar narxi ichki bozordagidan qimmat bo'lishi kerak); ikkin-chisi ortiqcha boylilikni ko'rsatuvchi yoki insonlarni gunohga undovchi tovarlar qo'shimcha soliqqa tortilishi zarur degan fikr bildiradi (ya'ni zargarlik buyumlari, alkogolli ichimliklar va hokazo), bugungi kunda "aksiz solig'i"ni tarixi degan nom oladi, ilk erkin iqtisodiy hududlarga oid fikrlar muallifi Uilyam Petti hisoblanar ekan.

Merkantilizmni keskin tanqid qilgan olimlardan biri Shotlandiyalik olim Devid Yum bo'lib "Savdo balansi to'g'risida" esse yozib unda fransuz faylasufi Sharl Monteskega "Pul savdo g'ildiragi emas balki uni moy-lash vositasi" deya e'tirof etadi. Devid Yum agar musbat savdo balansi mamlakatda boylilikni (pul miqdorini) ko'paytirsam ichki bozorda narxlar ham ko'tariladi, natijada tashqi bozorlar uchun mo'ljallangan tovarlar narxi ham ko'tariladi va bu eksportga mo'ljallangan tovarlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi deydi, eksport hajmining kamayishi, o'zgarmay turgan import hajmining ortishiga natijada tashqi savdo balansi manfiy qoldiqqa ega bo'lishi va pulning chiqib ketishini ham ko'payishiga olib keladi. Bu fikr o'sha davr merkantilist-lari fikrlariga qarshi edi, shuningdek pulning ortiqcha chiqib ketishi mamlakat ichki bozorida narxlarning pa-sayishiga, eksport raqobatbardoshligini oshishiga, savdo balansi yana qaytib musbat qoldiqqa ega bo'lishiga hamda kirib keladigan pul oqimi ham ko'payishiga sabab bo'ladi deydi.

Merkantilizmlar o'z g'oyalarini rivojlantirishda davom etgan holda Jeyms Styuart orqali "Siyosiy iqtisod tamo-yillarini tadqiq etish" nomli asar 1767-yilda yoziladi, Yozef Shumpeterning fikriga ko'ra siyosiy iqtisodga Devid Yum tomonidan tamal toshi qo'yilgan. Devid Yum qochonki davlat sanoat mahsulotlarini boshqa xalqlarga sotish orqali boyisa lekin savdo aylanmasi uning zarariga ishlasa u holda savdoni to'xtatish kerak deydi, shu-ningdek uchta usul ko'rsatiladi: birinchisi tashqi savdoda hamkor bo'lgan raqobatchilar ustun sohalaridan voz kechish, ikkinchidan mavjud raqobatda ustun jihatlarga urg'u berish va shu sohaga bor kuchini tashlash, uchin-chisi mahalliy ishlab chiqarilgan aynan bir xil yoki o'xshash tovarlarni import qilishda yuqori boj stavkalari bilan himoyalanih. Bu borada yana Devid Yum agar eksport uchun ishlab chiqariladigan tovarlar uchun xom ashyo importi zarur bo'lsa nima qilish kerak? degan savolga, muammoning yechimi sifatida esa ikkita yechim taklif qilgan, binichisi mahalliy xom ashyo resurslari asosida ishlab chiqarishni tashkil etish, ikkinchisi mahalliy xom ashyo resurslariga qarab ishlab chiqarish hajmini belgilash.

Merkantilizmlar fikriga ko'ra dunyodagi boyliliklar chegaralangan, bir davlatning boyishi faqatgina boshqa biri-ning kambag'allashishi hisobiga yuz beradi, faqatgina davlatda kuchli armiya va harbiy flot boshqalar ustidan hukumronlik o'rnatish vositasida amalga oshiriladi deb uylaganlar. Ular iqtisodiy tizimni uchta sektorga bo'lib: qishloq xo'jaligi, sanoat va mustamlakalardan iborat deya talqin qilishgan, savdogarlar iqtisodiy tizimning asosiy muhim bo'lagi, mehnat esa ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida ko'rilgan. Albatta biz bu haqda gapirga-nizda gap tashqi savdoning boshlang'ich nazariyalari to'g'risida ketayotganligini unutmashimiz kerak bo'ladi. Quydagi 1-rasmda xalqaro savdoning ilk nazariyalari sxema ko'rinishida keltirilgan bo'lib unda har bir olimning kashfiyoti qaysi yillarda ishlab chiqilganligi to'g'risida ma'lumot olishimiz mumkin:




1-rasm: Xalqaro savdoning ilk nazariyalari¹

Tashqi savdo borasida merkantilistlar xizmati kam bo'lmadi ular tashqi savdo balansini musbat holda ushlab turish yoki uning ijobiy qoldig'ini shakllantirish borasida qimmatli fikrlarni bayon qilishdi, ya'ni bunga ko'proq eksport salohiyatini oshirish mumkinligini ta'kidlashdi, ular bunday ish yuritish birinchi navbatda ishlab chiqarishni rivojlantirsa ikkinchi navbatda aholi bandligi oshiradi deb qabul qildilar. Bosqinlar va sovg'alar kam ahamiyatga ega ko'prok pul topish uchun tashqi savdoni rivojlantirish kerak deya fikr bildirdilar, buning uchun bitta qoida, tovarlar sotib olinayotgan davlatga ulardan sotib olingandan ko'ra ko'prok tovar eksport qilish kerak deya hisobladilar.

Faol eksport siyosatini yuritish, bu borada ular eksport qilinuvchi tovarlarni qayta ishlash darajasini ko'tarish, tashqi savdoni amalga oshirishda o'z transportidan foydalanish, ichki xom ashyo resurslarini tejab ishlatish, tovarlar eksportini rag'batlantirish, xorijdan olib kelinadigan xom ashyo resurslariga bojxona to'lovlarini kamaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomomidan taklif etilgan tovarlarni rag'batlantirish va mahalliy tovarlarni juda qimmatlashishiga xizmat qiluvchi omillardan voz kechishga asosiy e'tiborlarini qaratdilar.

Davlatga pul oqimini ta'minlash, bu borada ular boyliklarni ikki guruhga bo'lgan holda sinflab eksport qilishni tahlil qildilar, birinchisi tabiiy boyliklar – yerdan qazib olish mumkin bo'lgan boyliklar, ikkinchisi sun'iy boyliklar – sanoat mahsulotlari. Ular oltin, kumush va qimmatbaho toshlar asosiy boylik deya uni to'plashni maqsad qildilar, ular bu kabi boylik hech qachon o'z qiymatini yo'qotmaydi, non, go'sht, vino va boshqa shu kabi tovarlarni davlatda oltin va kumushlar to'plash vositasi deb hisoblaganlar. Yana bir jihat reeksportga alohida e'tibor bergan holda bir davlatdan arzon olib boshqa davlatga qimmatroq sotish masalalsiga ham alohida e'tibor berishgan.



2-rasm: Merkantilistlarning asosiy g'oyalari²

1 A. Киреев. "Международная микроэкономика" 2014г. 115 стр.
2 Muallif ishlanmasi.



Proteksionizm siyosatini olib borish. Davlat boj tarifi va cheklovlar (kvota) vositasida tashqi savdo balansini ijobiy qoldig'ini ta'minlash maqsadida eksportni rag'batlantiradi hamda importni qisqartirishga harakat qiladi. Uilyam Petti fikriga ko'ra davlat eksport hajmiga yarasha import hajmini oshirishi mumkin, undan tashqari ishlab chiqarishni to'xtatmaslik uchun juda ko'p foyda bo'lmasa ham tovarlarni sotishni rag'batlantirish kerak.

Eksport uchun sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va undagi tayyor mahsulot ulushini ko'paytirish. Merkantilistlar davlat xom ashyo eksportiga nisbatan tayyor mahsulot eksportidan ko'proq foyda ko'radi, shu sababli xom ashyo olib chiqib ketilishini cheklash yoki butunlay ta'qiqlash kerak degan g'oyani ilgari surishdi, undan ko'ra arzon xom ashyo importini rag'batlantirish raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab quvvatlaydi hamda mamlakatda oltin va kumush zaxirasini ushlab turishga xizmat qiladi deya fikr bildirdilar. Ularning fikrlariga ko'ra yana qishloq xo'jaligiga nisbatan sanoat foydaliroq, sanoatga nisbatan savdo foydaliroq, davlat o'zi qazib olgan qazilmalarini to'liq o'zi qayta ishlab tayyor mahsulot ko'rinishiga keltirishi kerak.

Mustamlaka davlatlar uchun tashqi savdoni ta'qiqlash. Mustamlaka davlatlarning tovarlarini arzon olib qimmatga sotish, ularni tayyor mahsulotlar yaratishga qo'maslik, ularni xom ashyo manbaisiga aylatirish g'oyalari merkantilistlar tomonidan joriy qilingan.

Oltin va kumush zaxirasi ustidan nazorat o'rnatish hamda xususiy shaxslar tomonidan pul olib chiqib ketishni ta'qiqlash. Bu yerda merkantilistlar bandlik masalasiga e'tibor qaratib, har qanday iqtisodiyot uchun bandlik masalasi to'liq hal qilinmaydi ya'ni ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'ladi ularni yollash ishlab chiqarish hajmini oshiradi va buning uchun albatta pul zaxirasi ko'p bo'lishi kerak degan fikrlarni bildirganlar. Undan tashqari ular bandlik masalasi to'liq hal qilinsa chetdan kelgan pul inflyasiyaga, ya'ni pulning qadrsizlanishiga sabab bo'ladi deganlar, bu fikrlari bilan ular bandlik va inflyasiya o'zaro bog'liq ekanligi sari birlamchi qadamlarini qo'yganlar.

Merkantilistlar tashqi savdo siyosati borasida bir nechta aniq takliflarni berdilar, eksport yaxshi – import yomon, eksportni qo'llab quvvatlash kerak, importni esa cheklash kerak, tashqi savdodan maqsada qattiq valyuta oqimini ko'paytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash kerak, zarur bo'lmagan importni ta'qiqlash kerak, eksportga faqat tayyor mahsulotlarni sotish kerak, xom ashyoni import qilib, tashqi savdo balansini ijobiy qoldig'ini ta'minlash kerak, qaysi davlatda qattiq valyuta ko'p bo'lsa o'sha davlat boy davlat kabilar shular jumlasidandir. Ilmiy tilda aholining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun faol zaxiralarni to'plash va tashqi savdo balansining joriy operatsiyalar bo'yicha ijobiy qoldig'ini ushlab turish deb tushunish mumkin. Shu maqsadda davlat proteksionizm siyosatini qo'llashi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilgan holda import hajmini cheklashi amalga oshiriladi, bu g'oyalar tashqi savdo amaliyotida XIV – XVIII asrlarda juda ommalashdi. Bu borada XVII asr oxiri XX asr boshlarigacha yirik iqtisodchi olimlar proteksionizm va erkin savdo tarafdorlari sifatida shakllangan holda qizg'in bahs va munozaralar olib bordilar, Adam Smit, Jon Meynard Keyns, Vayner va Eli Xeksher kabi olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida yoritib berdilar.

Merkantilizmning amalda qo'llanishi

Merkantilistlar qarashlari asosida olib borilgan iqtisodiy siyosat qimmatbaho metallardan foydalanish va ularni ayriboshlash ustidan davlat nazoratini o'rnatilishiga olib keldi, hukumat jismoniy shaxslarga oltin va kumushni olib chiqib ketishni ta'qiqlashga harakat qildi, tartibni buzganlarga hattoki o'lim jazoni qo'llashgacha bo'lgan qonunlar joriy qilindi. Hukumat tashqi savdoni amalga oshirish huquqini ayrim kompaniyalarga aniq yo'nalishlarga amalga oshirishga ruxsat berdi, ularning asosiy maqsadi tashqi savdo balansini ijobiy qoldig'ini ushlab turish edi, o'sha davr uchun savdo monopoliyalari vujudga keldi, misol uchun "Hudson Bay Company" yoki "Dutch East India Trading Company" kabilar bir necha o'n yillar XVIII asrning ikkinchi yarmigacha mavjud bo'lib turdilar. Undan tashqari hukumat eksportga subsidiyalari berdi, iste'mol tovarlari importiga bojlarni joriy etdi, lekin eksport tovarlari ishlab chiqaruvchilar uchun import qilinadigan xom ashyoga import bojxona bojlarini bekor qildi. Merkantilistlarning g'oyalari ko'pgina davlatlarning iqtisodiy siyosatida qariyb bir yarim asr mobaynida to'liq hukmronlik qilgan, natijada XVIII asrning boshlarida xalqaro savdo chigallashgan sun'iy cheklovlar to'ri bilan o'raldi, savdo qoidalari milliy hukumatlar tomonidan ishlab chiqilgan holda ko'pincha bir biriga qarama qarshi ishlab chiqildi, bu esa yangi vujudga kelayotgan ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga zid keldi.

XVIII asrning oxiriga kelib merkantilizm nazariyalari va davlat siyosati yangi sanoat inqilobi sabab chekinadi, yangi nazariya sifatida sho'a davr uchun klassik iqtisodiy siyosat yuzaga chiqadi, ayrim klassik maktab iqtisodchilari merkantilistlar fikrlarini noto'g'ri tushunchalar deb atadilar. Lekin XIX asrning boshlariga kelib merkantilizm yana iqtisodiy nazariyalarga nemis iqtisodchi - geosiyosatchisi Fridrix List tomonidan davlat maqsadlarini mustahkamlash maqsadida olib kirildi, u merkantilistlarning proteksionizm siyosatini tarbiyalovchi sifatida davlatning yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi degan g'oyani ilgari surdi. Uning fikricha proteksionizmdan erkin savdoga davlat rivojlangandan keyin o'tishi kerak, sanoat ishlab chiqarish qishloq xo'jaligi hisobidan rivojlanmasligi kerak, bojxona proteksionizmi qishloq xo'jaligiga joriy qilinmasligi kerak, tarbiyalovchi proteksionizm aholisi ko'p bo'lgan, resurslari ko'p bo'lgan, iqlim yaxshi bo'lmagan va suv yo'lga chiqish imkoniyati mavjud davlatlar uchun joriy qilinishi kerak.



XX asrning boshlarida aniqrog'i 1936-yilda merkantilizm qarashlarining yangi himoyachisi sahnaga chiqadi, bu olim Jon Meynard Keyns edi, u klassik maktab vakillarining e'tiborsizlik qilgan nuqtalariga diqqatini qaratib, pul oqimi va foiz stavkasi o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida fikrlab ushbu ikki omil bandlik va investisiyalarni rag'batlantirishini aytadi. U merkantilizm qarashlarini o'rganar ekan "ilmiy haqiqatlar to'rt elementi"ni qayd etadi: birinchisi favqulotda yuqori foiz stavkasi boylik o'sishiga to'siq bo'lishi, ikkinchisi haddan tashqari raqobatning davlatlar uchun eksport va import tovarlari narxini foydasiz qilishi, uchinchisi ishsizlikning sababi sifatida pulning yetishmasligini tasavvur qilish, to'rtinchisi ijobiy savdo balansini qo'llab quvvatlash yo'li bilan foiz me'yorini pasaytirish orqali milliy manfaatlariga intilish ekanligi izohlab beradi.


XX asrning o'rtalariga kelib merkantilizm qarashlari amalda tashqi savdoning yangi nazariyasi sifatida qayta qo'llanila boshlandi, misol uchun arzon import tovarlari milliy iqtisodiyotda ish o'rinarini yo'qolishiga olib keladi, avtomobilsozlik va boshqa milliy sohalar xorijiy raqobatdan himoya qilinishi kerak, jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish ichki bozorga xorijiy hamkorlarga yo'l ochib berish milliy sanoat ishlab chiqarishni yo'q qiladi degan fikrlarni bugungi kunda hattoki matbuot sahifalarida uchratamiz. Ishchilar mahalliy hukumatdan o'z ish joylarini himoya qilishini so'rashlari, dunyoning rivojlangan davlatlaridan tortib rivojlanayotgan yoki o'tish davri mamlakatlarida ham kuzatilishi mumkin, misol uchun Xitoy tovarlarini peshtaxtalarni arzon tovarlar bilan to'ldirib tashlashi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ular bilan raqobatlasha olmasligi yoki Xitoy texnologiyasi asosida ishlab chiqarilayotgan tovarlar xom ashyosining aynan Xitoydan import qilinishi shular jumlasidandir. Yaponiya misolida esa birgina Xonda avtomobilini oladigan bo'lsak AQSH bozori uchun ishlab chiqarilgan turi Yevropa bozorlarida sotilishi mumkin emas ekan, va aksincha Yevropa bozorlari uchun ishlab chiqarilgan AQSH da sotilmaydi, sababi aytaylab har bir davlat o'zi uchun talablar ishlab chiqargan bo'lib shu asosda o'z bozorini himoya qiladi. Jahon savdo tashkiloti muzokarlarida ham milliy iqtisodiyotlar namoyondalari eksport yaxshi import yomon, davlat o'zaro tashqi savdoda bir birlariga yon bosishda tashqi savdo balansining qoldig'iga e'tibor qilishlari merkantilizm qarashlarining aks sadosi hisoblanadi. Misol uchun AQSH o'z portlarida xorijiy kemalarning yuk tashishiga qarshilik ko'rsatsa, Rossiya o'zining avia kompaniyalaridan tashqari boshqalarga o'z shaharlari orasida yo'lovchi tashishni ta'qiqlaydi, bu shuni ko'rsatadiki bugungi kunda tashqi savdoda merkantilizm qarashlari hamon tirikdir.

Merkantilizm tanqidi

Merkantilistlar xalqaro savdo nazariyalariga ulkan hissa qo'shdilar, ular mamlakatning iqtisodiy o'sishi muhimligi borasida o'z modellarini yaratdilar, bugungi zamonaviy iqtisodiyot uchun to'lov balansi tushunchasini ilk bor muomalaga kiritdilar. Merkantilistlarning birinchi cheklangan fikrlari bir davlat faqatgina boshqa davlat kambag'allashishi hisobiga xalqaro savdoda boyishi mumkin degan fikrlari edi, ular xalqaro savdo boshqa davlatning boyligiga ega bo'lish bilan emas balki davlat yetishtirgan moddiy ne'matlarga ham bog'liqligini tushunmadilar. Biroz keyin paydo bo'lgan fiziokratlar amalda deyarli tashqi savdoni inkor etganlar, ingliz faylasufi va iqtisodchisi Devid Yum birinchilardan bo'lib merkantilistlar fikrini inkor etganlardan hisoblanadi, xalqaro savdo borasidagi merkantilistlarning qarashlari unga klassik maktab g'oyalarini yaratishda turtki bo'lgan. Devid Yumga ko'ra "Iqtisodiyot tabiatini bilmaydigan davlatda tovarlar eksporti ta'qiqlanadi, barcha qimmatli va foydali ne'matlar ushlab turiladi yoki to'planadi, ular tushunmaydilarki bunday ta'qiqlar ularning maqsadlariga qarama qarshi harakatlanadi". Davlatning boyligi u to'plagan oltin va kumushlarda emas balki oltin va kumushga ayriboshlanadigan u yetishtirgan yoki yaratgan tovarlar hamda xizmatlarga bog'liq. Iqtisodiyot bilan yaxshi tanish bo'lgan davlatlarda ham to'lov balansining salbiy qoldig'idan qo'rqish, oltin va kumush zaxirasini kamyib ketishidan xavotir bor, menimcha sanoat va yetarli ishchi kuchi mavjud davlatlarda bundan qo'rqmasa ham bo'ladi deydi Devid Yum, bugungi kunda ko'pgina davlatlar sanoatini rivojlantirishga harakat qilishi ushbu fikrlarning qay darajada asosli ekanligini ko'rsatadi.

Undan tashqari pul miqdori real iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatmaydi balki narxlar oshishiga olib keladi, oltin va kumushlarni to'plash davlatning xalqaro raqobatbardoshligiga ta'sir etadi, pulning miqdori esa u xizmat ko'rsatadigan real iqtisodiyot hajmiga bog'liq kabi fikrlarni bildiradi.

"Narx – Oltin - Oqimlar" o'zaro bir biriga ta'sir etuvchi mexanizmini ishlab chiqib, Devid Yum oltinnig ko'payishi natijasida erishilgan savdo balansining ijobiy qoldig'i mamlakat ichkarisiga pul taklifini oshirishi natijada ichki narxlar va oylik ish haqlari oshishiga olib kelishini aytadi, buning oqibatida xalqaro raqobatbardoshlik yo'qolishini ta'kidlaydi, sababi eksport uchun ishlab chiqariladigan tovarlar xom ashyosining ham narxi oshadi. Uning teskarisida mamlakatdan oltin va kumush chiqib ketishi, narxlar tushishiga va ish xaqi kamayishiga olib kelishini, natijada xalqaro raqobatbardoshlik oshib borishini ta'kidlaydi, sababi ichki bozordagi resurslarning narxi pasayishi oqibatida eksportga chiqariladigan tovarlarning narxi ham tushishi nazarda tutiladi.



3-rasm: Merkantilizm tanqid qilgan asosiy g'oyalar³

Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda Devid Yum tashqi savdo balansini 4 bosqichli o'zini o'zi muvozanatlashtiruvchi jadvalini taqdim etadi, unga ko'ra A davlat bilan B davlat biri biri bilan savdo qilganda A davlat musbat qoldiqqa ega deb tasavvur qilsak, ya'ni eksport importdan ko'p, B davlat esa manfiy qoldiqqa ega ya'ni eksportga nisbatan import ko'p holat, quyidagi taxminiy shartlar bajarilgandagi holatda u yaratgan jadval ish beradi: muomaladagi pul miqdori va narxlarning o'zaro bog'liqligi mavjud (keyinchalik bu pul miqdori nazariyasi degan nom olgan); har bir davlatda ishlab chiqarish omillarining to'liq band deb olinishi; sotiladigan tovarlar narxlari elastik (narxning oshishi sotiladigan tovarlarga xarajatlarni kamaytiradi va aksincha narxning tushishi sotiladigan tovarlarga bo'lgan xarajatlarni oshiradi); ishlab chiqarish omillari va tovarlar bozorida sog'lom raqobatning hukmronligi; milliy valyuta oltin va kumushga erkin ayriboshlanadi (keyinchalik bu oltin standarti atamasi deya nomlangan). Ushbu shartlar bajarilgan holda quyidagi ko'rinish yuzga keladi (1-jadval):

1-jadval: Devid Yumnnng tashqi savdo balansini 4 bosqichli o'zini muvozanatlashtiruvchi jadvali⁴

	A davlat	B davlat
	$X > IM$	$X < IM$
1 bosqich	Sof oltinning kirib kelishi	Sof oltinning chiqib kelishi
2 bosqich	Pul massasining o'sishi	Pul massasining qisqarishi
3 bosqich	Ichki narxlar va ish haqining o'sishi	Ichki narxlar va ish haqining qisqarishi
4 bosqich	Raqobatbardoshlikning yo'qolishi, eksport tovarlar narxlari oshishi va import o'sishi	Raqobatbardoshlikning oshishi, tovarlar eksporti hajmi ortishi va import qisqarishi
Natija	$X = IM$	$X = IM$

Bunday holatda yopiq zanjir paydo bo'ladi: ijobiy savdo balansi → pul oqimi kirib kelishi → ichki narxlarning oshishi → raqobatbardoshlikning pasayishi → manfiy savdo balansi → pulning chiqib kelishi → ichki narxlarning tushishi → raqobatbardoshlikning oshishi → ijobiy savdo balansi. Natijada pul oqimi aholining turmush farovonligi ortishiga xizmat qiladi, sababi pul oqimlari real iqtisodiyotdagi jarayonlarni o'zida aks ettirib narx darajasiga ta'sir etishi mumkin, lekin tovarlar va xizmatlar yaralishiga ta'sir etmaydi. Bunday oddiy mexanizmni yozish orqali minimum to'rtta hodisa kutilishi ochiqdan, bu esa o'z navbatida nafaqat tashqi savdo balki xalqaro iqtisodiyot nazariyalarida ham muhim o'rin tutuvchi elementlar sifatida bugungi kunda qadrlanadi: ochiq bozor iqtisodiyotini o'zini o'zi boshqarishi; pul miqdori nazariyasi (iqtisodiyotdagi pul o'tkazmalari uning chiqqan pul miqdori va chetdan kirib kelgan pul miqdoriga bog'liqligi); inflyasiyaning monetar xarakteri (narxlar darajasi mamlakatdagi pul miqdoriga bog'liqligi); real valyuta kursi (mamlakatning eksport - import hajmi uning ichki narxlarga bog'liqligi). Bugungi kunda bu shartlar ancha qattiqlashdi: pul miqdori nazariyasi, ishlab chiqarish omillaridan foydalanish; tovarlar va omillar bozorida erkin raqobat; valyutaning erkin konvertatsiya qilinishi (ayriboshlanishi) kabi ko'rinishga keldi.

3 Muallif ishlanmasi.

4 Aleksey Kireev "Xalqaro mikroiqtisodiyot" Moskva 2014 yil.129-bet



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar olib borishda tashqi savdoni korxona miqiyosida va milliy iqtisodiyot doirasida tashkil etish borasida merkantilistlar fikrlaridan bugungi kunda olish mumkin bo'lgan xulosa quyidagicha:

- tashqi savdoni tashkil etishda davlatning tashqi siyosatini chuqur bilmasdan turib xalqaro savdo bilan shug'ullanaman degan tadbirkor yutqazadi.
- tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki bugungi kunda merkantilistlarning fikrlari aksariyat rivojlanayotgan davlatlarning tashqi savdoni amalga oshirishda dasturi amali bo'lib xizmat qilmoqda, lekin shuni unutmaslik kerakki xom ashyo resurslariga boy davlatlar uchun merkantilizm g'oyalari qo'l kelishi mumkin, ammo resurlari chegaralangan davlatlar uchun tashqi savdoni erkinlashtirish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi joriy etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 15-yanvar 2024-yildagi tadbirkorlik reytingini joriy qilish taqdimoti bilan tanishuvi. Xalq so'zi gazetasi. 2024-yil 16-yanvar 11(8634) soni.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustivor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. Xalq so'zi gazetasi 2024-yil 17-yanvar №12(8635)soni.
3. A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. O'rmonov "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" Darslik. Toshkent "Iqtisodiyot - Moliya"2007.
4. Sh.X. Toshmatov, N.I. Xasanova "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" O'quv qo'llanma. Toshkent "Iqtisodiyot dunyosi"2021y.
5. N.X.Hakimov "История экономических учений" Учебник. Tashkent "Imzo Print Media Grup"2022g.
6. А. П. Киреев "Международная микроэкономика" Учебник. Москва "Международные отношения"2014г.
7. А. М. Орехов "Методы экономических исследований" Учебное пособие. Москва "Инфра – М" 2014г.
8. Под редакций М.С. Мокеев "Методология научных исследований" Учебное пособие. Изд. Юрайт Москва 2015г.
9. Hugo Bromley. "England's Mercantilism: Trading Companies, Employment and the Politics of Trade in Global History, 1688–1704." University of Cambridge, UK 2023. <https://www.researchgate.net/publication/376583889>.
10. N.S. Ismailova, U.A. Dadabayev "O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari" Monografiya. TDIU. "Ilm – fan va innovatsiya" nashriyoti Toshkent 2023-y.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.